

## AMIR TEMUR FAOLIYATIDA ADOLAT TAMOYILLARI

Lapasova Maftuna Sanaqul qizi, JDPI 1-kurs magistranti.

Ilmiy rahbar: dos. F.E. Toshboyev

e-mail: [Yustitsiya.1991@inbox.uz](mailto:Yustitsiya.1991@inbox.uz)

**Annotatsiya:** mazkur maqolada Amir Temur hukmronligi davrida davlat boshqaruvining adolat tamoyillari asosida yuritilish hamda idora etilishi haqida fikrlar bayon etilgan.

**Аннотация:** В статье рассматривается идея государственного управления в период правления Амира Темура на принципах справедливости.

**Annotation:** This article discusses the idea of public administration during the reign of Amir Temur on the principles of justice.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, davlat boshqaruvi, adolat, tenglik, Temur tuzuklari

**Keywords:** Amir Temur, public administration, justice, equality, Temur's rules

**Ключевые слова:** Амир Темура, государственное управление, справедливость, равенство, правила Темура.

Jahon tarixi zamirida ko'hnna Sharq tarixi alohida o'rin egallaydi. Ma'lumki, har bir davr o'zining tarixiy shaxslarini yaratgan va mazkur shaxslar tarix silsilasini vujudga keltirgan. Binobarin, Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda Amir Temur va temuriylar davrini mufassal o'rganmay turib, bu mintaqaning tarixiga baho berish mumkin emas. Bu davrda mintaqa siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonida ulkan ijobiy burilishlar bo'ldi.

Amir Temur qudratli davlat qurish va el-yurt farovonligi yo'lida bir umr kurashdi. U - o'sha davridayoq xalqlarni jipslashtirish, adolat o'rnatish lozimligini tushunib yetdi, yangi hayot, milliy davlatchilik qonunlarini ishlab chiqdi va hayotga joriy qildi. Amir Temur faoliyati milliy mustaqillikni tiklab, markazlashgan davlat tuzishga qaratildi. Uning sarkardalik qobiliyati va qiyin vaziyatda to'g'ri yo'lni topa bilishi o'z samarasini berdi.

Qariyb bir yuz ellik yil hukm surgan mo'g'ullar hukmronligiga barham berdi. U katta g'ayrat bilan mamlakat iqtisodiy va harbiy qudratini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdi. Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har

tomonlama tushunish, u barpo etgan qudratli saltanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini, Sohibqironning davlat shqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalarini o'rganishda, umuman aytganda, hayot sirlarini anglab yetishda «Temur tuzuklari» bebaho qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Temur tuzuklarida yozilishicha, “Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur”,deya bildirgan fikrlarida esa haqiqiy dono davlat rahbarlariga xos bo‘lgan ilm-u donnish sohibi ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari “O‘zga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, g‘anim lashkarlarini sindirish, dushmani tuzoqqa tushirish, muxoliflarni (ko‘nglini ovlab) do‘stga aylantirish, do‘st-dushman orasida muomala, murosayu madora qilish xususida ushbu kengash va tadbirlarni qo‘lladim”. Bu amalga oshirilgan ishlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, oqilona amalgam oshirilgan siyosat deya olamiz. Yoki prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Bu merosnichuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak.

Amir Temurning ulug‘ligi, kuchli siyosatchi ekanligi shundaki, u faqat qo‘shin kuchiga emas, balki, birinchi navbatda adolatga tayangan holda davlatni boshqargan. Uning uchun tadbirkorlik, kengash bilan ish ko‘rish, ehtiyotkorlik bu qonun edi. “Temur tuzuklari” – Temur kodeksi Amir Temur davlati va uni idora qilish me‘yorlari, qoidalari to‘plamidir. O‘rta asrlarda hukmron siyosiy qarashlar, qoida-lar, qonunlar hozir ham o‘z ahamiyatiga egadir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”[2008] asarida shunday degan edi:-“Shaxsan men “Temur tuzuklari”ni har gal o‘qir ekanman, hudduki o‘zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo‘laman. O‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun bugun ham ozuqa bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekanligiga ko‘p bor ishonch hosil qilganman”.

Amir Temur davlatida xuquq tizimi quydagicha bo‘lgan. Shayxulislom-mamlakatda musulmonlarni nojo‘ya ishlardan saqlash va savob ishlarga undash bo‘yicha masxul shaxs. Sadrlar-axli islomga boshchilik qilgan. Asosiy vazifalari vaqflarni nazorat qilish bo‘lgan: shuningdek ular suyurg‘olni ham belgilab turganlar. Mutavalliy-sadrlar tomonidan vaqflarni boshqarish va nazorat qilish bilan shug‘ullanuvchi shaxs. Qozi-xar bir shaxar va viloyatla, devonning turli bo‘g‘inlarida

qonunni nazorat qilgan. Qozilar martabasi va darajasiga ko'ra bir-birilan farq qilgan. Mudarris-diniy masalalar, shariat, tafsir, xadis va fiqxdan dars beruvchi shaxs. Muxtasib-bozorlarda tarozi, narx-navoni nazorat qiluvchi maxsul. Bular orasida qozi va sadrlar o'z ishlar yuzasidan shaxsan Amir Temurning o'ziga xisobot berib turganlar. Amir Temur qat'iy qonunlar va tartiblarni o'z tuzuklarida yozib qoldirgan:- xazinabon moliya ishlariga xiyonat qilsa, o'zlashtirib olgan mablag'i maoshidan ikki barobar ortiq bo'lsa, ortig'i oladigan maoshi xisobidan ushlab qoling.

Sohibqiron qonunlarga rioya qilish kuchli bo'lsa, adolat bor joyda barqarorlik va tinchlik bo'lishini amalda ko'rsatib berdi, xalqlarning tinchligini ta'minladi. Bu esa o'sha davrda juda qattiq iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, siyosiy yuksalishlarga sabab bo'lgan. Amir Temur shaxsi uning davlat rahbari sifatida yuritgan siyosati xususida so'z borganda e'tiborga molik bir jihat ham mavjud. Bu ham bo'lsa insoniylik, rahm shavqat, dushmanlariga nisbatan adolat. Ushbu xususda esa, "Amir Husayn menga asir tushgandan keyin, uning navkarlari va amirlari «Endi bizni o'ldiradi», deb gumon qilgan edilar. Avvaliga niyatim shundoq edi, keyinroq, «Axir bular askarlar-ku?» deb barchalarini afv etdim va yana askarlikka tayinladim". Darhaqiqat, bunday oliyjanob hislatlar barcha davlat rahbarlarida ham mavjud bo'lavermasligiga tarix guvohdir.

Amir Temur ilm-fan rivoji uchun g'amxo'rlik qilishi tufayli Samarqand dunyoning ma'rifiy markaziga aylandi. Mashhur olimlar Samarqandga keldi. Masalan, Qozizoda Rumiy, tabib Xusomiddin Kermoniy, falaqiyotshunos Mavlono Ahmad, Ulug'bek davrida turli mamlakatlardan kelgan 100 dan ortiq olimlar ilmiy va ijodiy faoliyat ko'rsatgan. Temur va temuriylar zamonida tabiiy va gumanitar fanlar sohasida buyuk olimlar yetishib chiqdi hamda jahon faniga munosib hissa qo'shdi. Falokiyotshunoslik fanida Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Ali Qushchilar yangi kashfiyotlar qildi. Tarix ilmida harofiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro', Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar yaratdi. Badiiy ijod va tilshunoslikda Jomiy, Navoiy, davlatshoh Samarqandiy, Atoullo Husayniy, Koshifiy singari ijodkorlar yuksak san'at asarlari bilan mashhur bo'ldi.

Amir Temur davrida qurilgan ilm fan poydevori Mirzo Ulug'bek davrida o'z samarasini berdi deb aytishimiz mumkin. Buning oqibatida Samarqandda birinchi Akademiyaga asos solindi, Yer kurrasini o'lchash va alaqiyotshunoslik jadvallarini

tuzish ishlari amalga oshirildi. Samarqand rasadxonasining qurilishi ulkan madaniy voqea bo'lib, jihozi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona yo'q edi. Rasadxonada Ulug'bek matematika, geometriya, falaqqiyotshunoslikda chuqur bilimlar sohibi edi. Ali Qushchi, Muhammad Xavofiylar uning sevimli shogirdlari bo'lgan. Mirzo Ulug'bek «Zij» asarida VIII-XI asrlarda boshlangan falaqqiyot ilmiga oid an'anani davom ettirib, yuqori darajaga ko'taradi. Matematikaga doir «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», Falaqqiyotshunoslikka oid «Risolai Ulug'bek» va musiqa haqida «Musiqa ilmi haqida risola» kabi asarlar yozdi. Ulug'bek Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda madrasalar qurdirib, ta'lim ishlariga rahbarlik qildi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Amir Temur davrida belgilab qo'yilgan turmush qonun-qoidalariga qat'iy amal qilinishi natijasida, insonparvarlik, yaratuvchilik mehnati bilan band kishilarning ijodiy erkinliklari ta'minlandi. Bu kabi bunyodkorliklar Temur Tuzuklar va ko'plab muarrixlarning asarlarida aks etgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alixonto'ra Sog'uniy va Habibulla Karomatov tarjimasi Bo'riboy Ahmedov va Ashraf Ahmedov tomonidan tayyorlangan "Temur tuzuklari".
2. B.Ahmedov . „O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari" Toshkent. 1991.
3. B.Ahmedov „Ulug'bek" Toshkent. 1989
- 4.Xurshid Davron. „Sohibqiron nabirasi yoxud mitti yulduz qissasi" Toshkent, 1995